



O'G'UZ LAHJASIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI TAHLILI (Xorazm shevalari misolida)

Shamuratova Malohat Ilhambekovna

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat
instituti Nukus filiali o'zbek tili va adabiyoti
fani bo'yicha assistent o'qituvchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liqligi lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm shevalarida qo'llaniladigan frazeologik birliklarning madaniy ildizlari, tarixiy-madaniy kontekstdagi ma'nolari va ularning adabiy tildagi sinonimlari ko'rib chiqiladi. Iboralarning xalq hayoti, urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy tafakkuridagi o'rni ochib beriladi. Maqolada frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari va ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, qadriyat, milliy mentalitet, dialekt, o'g'uz lahjasi, frazeologizm.

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и культуры с точки зрения лингвокультурологии. Особое внимание уделено фразеологическим единицам, используемым в хивахских (Хорезмских) диалектах, их культурным корням, значениям в историко-культурном контексте и литературным аналогам. Анализируется отражение народного быта, традиций, ценностей и менталитета в этих выражениях. Отмечается важность фразеологизмов как носителей культурной памяти и элементов национальной идентичности.

Ключевые слова: языковая культура, ценности, национальный менталитет, диалект, огузский диалект, фразеология.

Annotation. This article analyzes the interrelation of language and culture from the perspective of linguoculturology. It focuses on phraseological expressions used in the Khorezm dialects, exploring their cultural origins, meanings within a historical and cultural context, and their literary equivalents. The study reveals how these expressions reflect the lifestyle, traditions, values, and mentality of the people. It emphasizes the importance of phraseological units as carriers of cultural memory and elements of national identity.

Key words: language culture, tsennosti, national mentality, dialect, Oghuz dialect, phraseology.

Dunyodagi barcha davlat va millatlar o'zining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti, tarixi, madaniy rivojlanishi va turmush tarsi bilan bir-biridan farq qiladi, har bir xalq dunyoni o'zining milliy mentaliteti va madaniyati orqali anglaydi. Shu asosda tilimizda aks etuvchi o'ziga xos umummilliy ahamiyatga ega o'z milliy dunyo tasvirini yaratadi. Til insonlarning dunyo haqidagi bilimlarining shakllanishi, mavjudligi hamda kelgusi avlodlarga saqlanishiga xizmat qiladi.

Ilmning barcha sohalari yillar davomida rivojlanib boradi, xususan gap tilshunoslik sohasi haqida bo'lsa, o'zbek tilshunosligi necha asrlardan buyon mavjud va rivojlanishda davom etmoqda.



Ushbu sohadagi bugunga qadar yechimini topgan hamda hali hanuz topilayotgan yo'nalishlari mavjud. O'zbek tilshunosligida yangidan ta'sis etilayotgan tilshunoslik sohalari bunga yaqqol misol bo'ladi. Xususan Qiyosiy tilshunoslik Kompyuter lingvistika, Lingvomadaniyatshunoslik ular tilshunoslikning yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lib, tilimizning boshqa jamiyat fanlariga bog'liqligini ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa hisoblanib, u ruhiy hamda ijtimoiy-madaniy hayotni bir-biri bilan bog'laydi. Ruhiy tarafdin insonlarning bilish, solishtirish va umumlashtirish jarayonlari bilan belgilansa, ijtimoiy jihat insonning jamiyatda, yashashi, uzatgan hamda qabul qilgan axboroti vat il orqali muloqotni amalga oshirida namoyon bo'ladi. Til nafaqat atrofdagi real dunyo, balki xalqning ijtimoiy o'zlikni anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, qadriyatlar tizimi, axloqi, hamda dunyoqarashida aks etadi. Shuning bilan birgalikda dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollarda, iboralarda, folklorda, badiiy va ilmiy adabiyotda, yozma va og'zaki nutq shakllarida madaniy qadriyatlarni saqlaydi.

Bugun til va madaniyatni chambarchas bog'liq jihatlarini ochib berish uchun, tilimizni madaniyat bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya paydo bo'ldi. U lingvistikaning mustaqil yo'nalishdir. Madaniyatshunoslik insonning tabiatga, jamiyatga, tarixga, san'atga nisbatan o'zlikni anglashiga e'tibor qaratsa, tilshunoslik esa, insonning dunyoga ko'z qarashini tilda ifodalash vazifasini bajaradi. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatni, ularning muloqot va o'zaro ta'sirida bo'lgan holatlarini o'z ob'ekti sifatida oladi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etilishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A. Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob'ekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan [7.361-b].

Haqiqtan ham, rus tilshunosligi tarafidan tadqiq etilgan lingvokulturologiya fani bugungi kunda o'zbek tili uchun ham yangi soha sifatida o'rganila boshladi. Uning taraqqiyotida quyidagi olimlarni hissasi katta. Uning taraqqiyoti V.V.Vorobev, V.N.Teliya, V.A.Maslova, Ye.I.Sheygal, N.Sh.Gallyamova, V.Gumboldt va A.A.Potebnya singari buyuk olimlarning hissasi kattadir.

Xalqlarning qadimdan mavjud bo'lgan qarashlari, an'alarini o'rganishda frazeologik iboralar noyob vosita bo'lib kelgan.Ular faqatgina milliy dunyoqarash



bilan tanishtirish imkonini yaratibgina qolmasdan, xalqlar tarixida qolib ketgan turmush tarzi bilan ham tanishtirish imkonini beradi.

Lingvokulturalogiyani bugungi kognitiv lingvistikadan ajratish mumkin emas. Chunki, tushunchalarni va ularning inson ongida tafakkur qilinishi hamda tilimizda namoyon bo'lishi lingvokulturologiya fanining asosiy omillaridandir.

Tarixiy davrlardagi jamiyat hayotining odob axloq va an'analarini ko'rsatuvchi qimmatli til birligi maqol va matallar, hikmatli so'zlar va albatta iboralardir.

Xalqimizning og'zaki ijod na'munalaridan biri bo'lgan iboralar (frazologizmlar) ham aynan lingvomadaniy xususiyatga ega. Biz tahlilga tortgan iboralar aynan o'g'uz lahjasining xorazm shevalariga mansub. Xorazm shevalarini tadqiq qilishda ko'proq nomlari tilga olinadigan olimlar Fattoh Abdullayev va Otanazar Madrahimovlarning xizmatlari e'tirofga sazovordir.

Biz o'rganayotgan shevadagi har bir iboraning o'ziga hos madaniy kelib chiqishi va asosi mavjud. Xususan, «**Kula go'milgan tonqodin**» iborasi mavjud bo'lib, u hech kim bilan ishi bo'lmay o'tirgan odamga nisbatan qo'llaniladi va hech nima demadi, indamadi ma'nolarini bildiradi. Bu ibora o'zbek adabiy tilidagi «og'ziga talqon soldi», «lom-mim demadi» iboralari bilan sinonim bo'ladi. Ushbu ibora xalqimizning qadimgi turmushidan dalolat beradi. Ya'ni, Xorazm qumlik bilan o'ralgan viloyat bo'lganligi uchun, oyog'i og'rikan bemorlar qumga borib ko'milgan, hamda shu yerda choy ichish uchun temir qumg'onga suv solib qaynatish uchun qo'yishgan. Ammo bu qumg'on ko'milgan joyida qaynamay turavergan. O'sha qumg'on Xorazm shevalarida "tonqo" deb aytiladi. Bu iborani ham hech narsaga aralashmay gapingga javob bermay o'tirgan insonlarni o'sha qaynamay qolgan qumg'onga (tonqoga) o'xshatganlar.

Masalan: *Sinpdayi ko'p o'quvchilo kula go'milgan tonqodin o'tiriptilo* (Qo'shko'pir shevasida).

«**Uchaka chiqorib zanggini olodi**» iborasi hayiqmaslik, qo'rqmay botinmoq degan ma'nolarni bildiradi va uning o'zbek adabiy tilidagi sinonimi «*Tap tortmaslik*» hisoblanadi. Ushbu iboraning kelib chiqishiga sabab qadimdan qayin onalarimiz jaydari, qaynonani siylamaydigan kelinlarga nisbatan aynan shu iborani qo'llagan.

Bundan ayon bo'ladiki, iborada ifoda etilgan mazmun nafaqat oldingi, balki, bugungi kun uchun ham eskilik hisoblanmaydi. *Bu diman tozo galin betachopor, uchaka chiqorip zanggini olodon xilinnon o'xshidi* (Yangariq shevasida).

«**Qiyomatni qopig'o akkalish**» iborasi o'ta vahima qilmoq, kuchli darajada qo'rqish hissini uyg'otmoq kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu iborada keltirilgan qiyomat so'zining o'zi diniy falsafiy qarashlarga borib taqaladi. Bu iboraning lingvomadaniy xususiyati deya, qanchadan qancha urush yomon kunlarning boshidan



kechirgan xalqimiz birdan vahimali gapni ko'tara olmasligi nazarda tutilgan. Ushbu ibora hozirgi o'zbek adabiy tilidagi «*Yuragiga vahima solmoq*» «*Ko'nliga vahima tushdi*» kabi iboralar bilan sinonim bo'ladi. Masalan: *Kichkina narsadanam qiyomatni qopig'o akkalavarma* (Qo'shko'pir shevasida).

«**Eshaki tushoqino loyiq**» iborasi esa munosib, loyiq ma'nolarini ifoda etadi. Ushbu lug'aviy birlik, o'zbek adabiy tilidagi «Uzukka ko'z qo'ygandek» iborasiga teng, ammo ularning bir-biridan farqli jihati shundaki, ushbu iboraning o'zbek adabiy tilidagi varianti ijobiy, sheva varianti esa salbiy ma'nolarda qo'llaniladi. Aslida ushbu ibora ham to'y marosimlar bilan bog'liq bo'lib, kelin va kuyovning bir biriga munosib ekanligi haqidagi ma'noni ifoda etadi. Masalan: *Hamma voxt biloship yurido'n qiz, Nargizni, Masur olipti. Ay uzi vilo eshaki tushoqino loyiq adi* (Qo'shko'pir shevasida).

«**Ichina o't tushdi**» iborasi ruhan bezovta bo'lmoq degan ma'noni bildiradi. Ushbu iboraning o'zbek adabiy tilida «Ichini ola mushuk tatalayapti», «Ichini it tirnadi», singari sinonimlari mavjud. *Bi gapni qizini yomon yo'lo girip getganini arina oyto'Imayan oponi ichina o't tushdi.* (Qo'shko'pir shevasida). Shuningdek, bu sheva nutqida «**O'zini o'zi yedi**» iborasi ham mavjud bo'lib, u asosan insonning ichki kechinmalari va ruhiy azobini ifodalashda ishlatiladi. o'zbek adabiy tilidagi «Ichini it tirnadi», «Ichini mushuk tataladi» degan iboralar bilan sinonimik qatorni tashkil eta oladi. Ma'nosi esa ruhan ezilish, kuyunish ma'nolarini bildiradi.

Shuningdek, «**Yuzi eshakni derisidin qolin**» ayrim holatlarda «**Yuzi eshakni derisinnanam qoling**» tarzida qo'llaniluvchi ushbu ibora uyalmaslik, andisha qilmaslik ma'nolarini bildiradi. Uning o'zbek adabiy tilida «Yuzi chidaydi», «Beti chidaydi» singari sinonimlari mavjud. Bu ibora xalq orasida betamizlik yoki surbetlikni ifodalovchi kinoyali ma'noda qo'llaniladi. Vaholanki o'zbek xalqida uyat hayo, andisha muhim qadriyat bo'lganligi sababidan bu ibora tanbeh shaklida ishlatiladi. Masalan: *Uzi qiz bolo bo'som yuzi eshakni derisinnin qolingakan, gapam ta'sir atmidi* (Qo'shko'pir shevasida).

Shuningdek, Qo'shko'pir shevasida bir necha variantlarda qo'llanuvchi «**Qo'yloni qumo yuvarip**» iborasi mavjud bo'lib u «**Pochcho poroxot**», «**Parvoyi palakda, ishtoni talakda**» iboralari bilan sinonim tarzida ham qo'llaniladi. Beg'am, beparvo, parvoyiga kelmaslik degan ma'nolarni bildiradi. Bu iboraning asl mohiyatida dangasa, bir ishga jiddiy yondashmaydigan insonlar yotadi. Quyidagi iboralarning o'zbek adabiy tilidagi «**Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi**», «**Parvoyi falak**» kabi sinonimlari mavjud. Jumladan: *Bu kishi hamma voxt shunnin: qo'yloni qumo yuvarip o'tirodi* (Qo'shko'pir shevasida).



«Yuzi gun go‘rmagan» iborasi oppoq degan ma‘noni bildiradi. Bu iboraning o‘g‘uz shevasida «Marqa» degan varianti ham uchraydi. Ushbu iboraning lingvomadaniy xususiyati deya, quyidagi fikrlarni keltiramiz. Xalqimizda bahor quyoshina keliningni kuz quyoshino qizingni chiqor dagan maqol bor. Aynan momolarimiz turmushga chiqmagan qizlarini quyoshda qorayib ketmasliklari uchun dala ishlarini ishlatmay uy ishlari bilan band qilib qo‘yganlar. Shuning uchun ham bu ibora oppoq qizlarga nisbatan ko‘p ishlatiladi.

Masalan: Qizingiz nabalo oppoq, yuzi gun go‘rmanqu (Shu sheva og‘zaki nutqidan).

a) «Og‘zini suvi oqdi» iborasi juda charchamoq ma‘nosini bildiradi. Adabiy tilida esa “Holdan toymoq” iborasiga teng keladi. Ushbu iboraning shu sheva tilida b) “oyoqinnan o‘t chiqdi” iborasi ham uchrab turadi. Qo‘shko‘pir aholi shevasi nutqida ushbu iboralarga o‘xshash yana shunday ibora borki bu ibora v) “Go‘zzini ko‘ki so‘kildi” iborasi bo‘lib, bu ibora ham yoki qattiq charchadi ma‘nolarini bildiradi. Garchi uning ma‘nosi ham yuqoridagi ibora bilan deyarli bir xil bo‘ladi, ammo bu iboraning ahamiyatli tomoni shundaki, ibora sal tor ma‘noda ishlatilib, faqat ko‘z orqali qilinadigan jismoniy harakatlarga nisbatangina (kompyuterda ishlash, tikuv mashinasida ishlash) ishlatiladi.

Xorazm xalqi azal-azaldan mehnat bilan kun kechirishgan hisoblanadi. Aynan, yuqorida keltirib o‘tilgan har uchala ibora ham qattiq mehnat qilib charchagan insonlarga nisbatan qo‘llanilgan. a) ibora qattiq charchadi, b) ibora to‘xtamay ishladi, v) ibora esa ko‘z mehnatini tinmay ishlaganini bildiradi.

Moshin tikavarip go‘zzimni ko‘ki so‘kildi (Urganch shevasi og‘zaki nutqidan).

“Bitini siqsong, qon chiqmidi” iborasi tilimizdagi ziqna, qizg‘anchiq so‘zlariga teng keladi. Bu iboraning shu sheva tilida “Bitina qon barmidi”, Bitini siqib qonini yolidi” kabi sinonim variantlari ham qo‘llanadi. Bu iboraning barcha variantlari birgalikda, salbiy bo‘yoqqa ega iboralarning sinonimik qatorini tashkil qiladi. Ushbu iboradagi parazit hashor bit aslida insonning qonini so‘rish bilan shug‘ullanadi. Bu ibora majoziy ma‘noga ega bo‘lib, o‘zida bor va ko‘p bo‘lgan narsani ham boshqalarga bermaslik qizg‘anish ma‘nosida ishlatiladi. Bu iboradagidek insonlarni qaysi millat bo‘lishidan qat‘iy nazar hamma joyda uchratishimiz mumkin.

Bi boyloni ko‘pisi shunning bo‘lodi uzi, bitina qon barmidi. (Shu sheva og‘zaki nutqidan).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ёўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.— Тошкент: Муҳаррир, 2013.—Б.24.



2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология Москва: Издательство РУДН, 2008-340.
5. Маслова В.А. Введение когнитивную лингвистику. Москва: Флинта.-Наук, 2007.-296 с.
6. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Москва: Издательство РУДН, 2008. – 340 с.
7. Международный научный журнал «Научный Фокус» N 11(100) част 1 марта.
8. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O ‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
9. Saodat, I., & Ma’suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
10. Israilova, S. (2022). “KO ‘K” leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

